



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 057,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **4,1 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **326,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **2,3 m.**) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4 731,3** mlrd. so'mni (**7,9 %** ga kamaydi), shundan Uyushmagan savdo tovar aylanmasi **361,4** mlrd. so'mni (**32,4 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 057,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **4,1 %** ni tashkil etdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **6,4 %** va yirik korxonalar hissasiga **93,6 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **22,0 %** ulush bilan **1 114,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Qarshi sh.
1 114,3

Kitob
371,9

Qamashi
364,1

Shahrisabz sh
283,9

Shahrisabz
192,4


Mirishkor
202,8

Muborak
164,3

ENG QUIYI ULUSH

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Muborak tumani **3,3 %** ulush bilan **164,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **4 731,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **7,9 %** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **92,1 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Shahrisabz shahrida (**99,6 %**), Koson (**99,4 %**), Dehqonobod (**99,2 %**), Mirishkor (**99,1 %**), Nishon (**99,0 %**), Qamashi (**98,9 %**) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Kasbi (99,7 %), Kitob (99,1 %), Dehqonobod (98,2 %), Nishon (96,2 %), Mirishkor (96,4 %) tumanlarida, Qarshi (98,8 %) va Shahrisabz (98,3 %) shaharlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





| | Jami, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------------------|------------------|---|------------------------------|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 5 057,3 | 95,9 | 326,0 | 2,3 m. | 4 731,3 | 92,1 |
| <i>hududlar:</i> | | | | | | |
| G'uzor | 213,3 | 91,7 | 4,0 | 2,3 m. | 209,3 | 90,7 |
| Dehqonobod | 250,3 | 98,2 | 2,1 | 7,4 m. | 248,2 | 97,4 |
| Qamashi | 364,1 | 94,5 | 4,1 | 10,3 m. | 360,0 | 93,6 |
| Qarshi | 221,7 | 93,1 | 7,3 | 9,3 m. | 214,4 | 90,3 |
| Koson | 492,1 | 94,7 | 2,9 | 16,7 m. | 489,2 | 94,2 |
| Kitob | 371,9 | 99,1 | 25,0 | 145,1 m. | 346,9 | 92,4 |
| Mirishkor | 202,8 | 95,4 | 1,8 | 7,6 m. | 201,0 | 94,6 |
| Muborak | 164,3 | 91,0 | 4,3 | 148,8 | 160,0 | 90,0 |
| Nishon | 190,7 | 96,1 | 2,0 | 3,9 m. | 188,7 | 95,4 |
| Kasbi | 212,1 | 99,7 | 2,8 | 4,0 m. | 209,3 | 98,8 |
| Chiroqchi | 492,8 | 93,6 | 10,6 | 9,5 m. | 482,2 | 91,7 |
| Shahrisabz | 192,4 | 89,9 | 15,8 | 47,4 | 176,6 | 97,7 |
| Yakkabog' | 290,6 | 95,0 | 8,6 | 183,8 | 282,0 | 93,6 |
| Qarshi sh. | 1 114,3 | 98,8 | 233,5 | 2,6 m. | 880,8 | 84,9 |
| Shahrisabz sh. | 283,9 | 98,3 | 1,3 | 94,3 | 282,6 | 98,3 |

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2,3 marttaga** ga o'sdi va **326,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 731,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **7,9 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,6 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shahrisabz sh. (99,6 %), Koson (99,4 %), Dehqonobod (99,2 %), Mirishkor (99,1 %) va Nishon (99,0 %) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (21,0 %), Shahrisabz (8,2 %) va Kitob tumanlarida (6,7 %) kuzatilgan.



VILOYAT BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 538,6** ming so'm (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **6,1 %** ga kamaydi), Qarshi (**97,0 %**) va Shahrisabz (**97,0 %**) shaharlari hamda Kasbi (**97,8 %**), Kitob (**97,5 %**), Dehqonobod (**96,2 %**), Nishon (**93,8 %**), Mirishkor (**93,5 %**) tumanlar va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Qarshi shahri (**4 032,9** ming so'm), Shahrisabz sh. (**2 041,1** ming so'm) va Muborak (1 894,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




| | Hajm, ming so'm | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da |
|-----------------------------|-----------------|---|
| Qashqadaryo viloyati | 1 538,6 | 93,9 |
| <i>hududlar:</i> | | |
| G'uzor | 1 046,8 | 89,8 |
| Dehqonobod | 1 701,5 | 96,2 |
| Qamashi | 1 341,2 | 92,4 |
| Qarshi | 895,8 | 91,1 |
| Koson | 1 727,3 | 92,7 |
| Kitob | 1 410,3 | 97,5 |
| Mirishkor | 1 698,7 | 93,5 |
| Muborak | 1 894,3 | 89,1 |
| Nishon | 1 249,2 | 93,8 |
| Kasbi | 1 081,8 | 97,8 |
| Chiroqchi | 1 198,9 | 91,2 |
| Shahrisabz | 865,2 | 88,3 |
| Yakkabog' | 1 103,3 | 93,2 |
| Qarshi sh. | 4 032,9 | 97,0 |
| Shahrisabz sh. | 2 041,1 | 97,0 |


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **361,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **32,4** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **210,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **84,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **150,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **52,9** %) tashkil etdi.

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **210,5** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **150,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

| | Jami, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda | Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------------------|------------------------|---|------------------------------------|--|--|--|
| Qashqadaryo viloyati | 361,4 | 67,6 | 210,5 | 84,6 | 150,9 | 52,9 |
| <i>hududlar:</i> | | | | | | |
| G'uzor | 20,8 | 69,5 | 12,1 | 74,9 | 8,7 | 88,3 |
| Dehqonobod | 14,8 | 47,4 | 8,6 | 45,5 | 6,2 | 27,6 |
| Qamashi | 26,8 | 77,7 | 15,6 | 126,7 | 11,2 | 58,6 |
| Qarshi | 23,9 | 95,4 | 13,9 | 302,6 | 10,0 | 76,7 |
| Koson | 43,8 | 57,4 | 25,5 | 93,8 | 18,3 | 35,8 |
| Kitob | 32,3 | 75,4 | 18,8 | 109,6 | 13,5 | 63,6 |
| Mirishkor | 3,8 | 39,7 | 2,2 | 32,9 | 1,6 | 21,1 |
| Muborak | 21,1 | 81,7 | 12,3 | 139,5 | 8,8 | 77,3 |
| Nishon | 10,4 | 57,2 | 6,1 | 74,5 | 4,1 | 33 |
| Kasbi | 8,2 | 53,4 | 4,8 | 98,2 | 3,4 | 20 |
| Chiroqchi | 80,4 | 66,3 | 46,8 | 79,7 | 33,6 | 50,4 |
| Shahrisabz | 19,3 | 98,6 | 11,3 | 145,2 | 8,1 | 293,2 |
| Yakkabog' | 17,7 | 80,2 | 10,3 | 94,5 | 7,4 | 70,9 |
| Qarshi sh. | 28,6 | 64,9 | 16,7 | 77,1 | 12,0 | 59,4 |
| Shahrisabz sh. | 9,5 | 50,6 | 5,5 | 22,3 | 4,0 | - |

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,8
mlrd. so'm

Tuzlamalar



70,4
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



8,4
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

36,0
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



9,7
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

7,0
mlrd. so'm



Tuxum

30,4
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

3,5
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **210,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**70,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

7,2
mlrd. so'm



Ziravorlar

32,0
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

1,9
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**


2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **150,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **105,1** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **37,3** mlrd. so'mni, otlar **7,5** mlrd. so'mni, parrandalar **1,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,5 %** ni tashkil etib, **74,2 mlrd. so'mga** yetdi va 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **32,0 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **93,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o'sish sur'atlari, foizda**



| | Jami, mln. so'm | 2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mln. so'm | 2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm | 2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------------------|--------------------|--|-----------------------------------|--|---|--|
| Qashqadaryo viloyati | 74 230,0 | 68,3 | 5 200,9 | 102,0 | 69 029,1 | 66,6 |
| <i>hududlar:</i> | | | | | | |
| G'uzor | 3 011,0 | 67,3 | 521,5 | 62,6 | 2 489,5 | 68,4 |
| Dehqonobod | 1 069,0 | 62,4 | | | 1 069,0 | 62,4 |
| Qamashi | 8 090,3 | 74,6 | | | 8 090,3 | 74,6 |
| Qarshi | 4 713,4 | 64,8 | | | 4 713,4 | 65,4 |
| Koson | 1 772,5 | 66,3 | | | 1 772,5 | 66,3 |
| Kitob | 6 056,3 | 64,3 | | | 6 056,3 | 64,3 |
| Mirishkor | 4 888,6 | 75,2 | | | 4 888,6 | 75,2 |
| Muborak | 6 091,9 | 97,3 | 3 055,0 | 158,9 | 3 036,9 | 70,0 |
| Nishon | 1 932,4 | 65,7 | | | 1 932,4 | 65,7 |
| Kasbi | 769,4 | 63,0 | | | 769,4 | 63 |
| Chiroqchi | 3 002,6 | 62,6 | | | 3 002,6 | 62,6 |
| Shahrisabz | 928,4 | 69,9 | | | 928,4 | 69,9 |
| Yakkabog' | 2 870,8 | 63,8 | | | 2 870,8 | 63,8 |
| Qarshi sh. | 25 483,2 | 65,2 | 1 624,5 | 71,3 | 23 858,7 | 64,9 |
| Shahrisabz sh. | 3 550,2 | 61,7 | | | 3 550,3 | 61,7 |

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **950,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **31,4** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **223,1** mlrd. so'mni (**57,2** % ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **727,5** mlrd. so'mni (**16,0** % ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **464,9** mlrd. so'mni (**16,0** % ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **262,6** mlrd. so'mni (15,9 % ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Koson (**395,0** m.) va Kitob (**81,2** m.), Yakkabog' tumanlarida (**29,2** m.) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari G'uzor (**2,0** m.), Shahrisabz (**182,8** %) va Koson (**126,1** %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



| | Jami, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm | 2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda |
|----------------------|---------------------|---|------------------------------------|--|--|--|
| Qashqadaryo viloyati | 950 578,0 | 68,6 | 223 047,3 | 42,8 | 727 530,7 | 84,0 |
| <i>hududlar:</i> | | | | | | |
| G'uzor | 14 682,0 | 2,0 m. | 8 708,6 | 7,7 m. | 5 973,5 | 84,0 |
| Dehqonobod | 2 517,0 | 84,0 | - | | 2 517,0 | 84,0 |
| Qamashi | 19 905,1 | 63,6 | 8 450,3 | 47,8 | 11 454,8 | 84,0 |
| Qarshi | 60 581,7 | 77,2 | 9 976,6 | 54,6 | 50 605,1 | 84,0 |
| Koson | 78 146,3 | 126,1 | 26 090,6 | 395,0 m. | 52 055,6 | 84,0 |
| Kitob | 51 745,7 | 92,6 | 4 798,6 | 81,2 m. | 46 947,1 | 84,0 |
| Mirishkor | 39 877,8 | 90,6 | 26 499,0 | 94,4 | 13 378,8 | 84,0 |
| Muborak | 18 940,8 | 49,2 | 10 645,0 | 37,2 | 8 295,8 | 84,0 |
| Nishon | 38 879,0 | 55,9 | 8 029,1 | 24,4 | 30 849,8 | 84,1 |
| Kasbi | 33 620,9 | 64,8 | 19 460,2 | 55,6 | 14 160,7 | 84,0 |
| Chiroqchi | 28 038,2 | 83,9 | - | - | 28 038,2 | 84,0 |
| Shahrisabz | 18 712,9 | 182,8 | 10 205,6 | 8,7 m. | 8 507,3 | 84,1 |
| Yakkabog' | 26 353,9 | 98,9 | 4 104,2 | 29,2 m. | 22 249,7 | 83,9 |
| Qarshi sh. | 463 523,4 | 57,4 | 86 079,5 | 24,0 | 377 444,0 | 84,0 |
| Shahrisabz sh. | 55 053,4 | 83,3 | - | - | 55 053,4 | 84,0 |

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **727,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **57,2** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **76,5** % ni tashkil etdi.

